

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

**“BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA HALOARO
STANDARTLARI”**

fanidan amaliy mashg'ulotni o'tkazish bo'yicha

USLUBIY QO'LLANMA

#

TOSHKENT

Magistratura yo'nalishlari magistrleri uchun “Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va halqaro standartlari” fanidan amaliy mashg'ulotni o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. i.f.n. B.B.Bababev, ass. O.O. Xudoyorov

-T.: TMI, 2017. 76 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida “Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va halqaro standartlari” fanini o'rganuvchi magistrler uchun mo'ljallangan. Uslubiy qo'llanmada mavzu yuzasidan savollar, topshiriqlar, amaliy jadvallar va testlarni o'z ichiga olgan bo'lib, “Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va halqaro standartlari” fanini chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Uslubiy qo'llanmaga berilgan mavzu yuzasidan savollar, topshiriqlar magistrlerining nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustaxkamlashga yordam beradi.

Uslubiy qo'llanma “Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va halqaro standartlari” fanini o'rganuvchi magistrler bilan bir qatorda ushbu fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini olib boruvchi pedagog xodimlar uchun ham mo'ljallangan.

Toshkent moliya instituti o'quv uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2017 yil “24” noyabrdagi № 3/22 son qarori).

Taqrizchilar:

i.f.n. dots. F. Nasriddinov

i.f.n., Z.A. Umarov

MUNDARIJA:

Kirish	3
1. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va ularning tuzilishi	6
2. O'zbekiston Respublikasi banklarida MHXSlari asosida moliyaviy hisobotlarning tuzish asoslari	11
3. Banklarning moliyaviy hisobotlari va uni tuzish	18
4. Banklarda hisob siyosati, buxgalterlik baholashdagi o'zgarishlar va xatolar	33
5. Banklarda moliyaviy aktivlarni MHXSlari asosida hisobga olish.	38
6. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar va ularning MHXS bo'yicha hisobi	43
7. Tijorat banklarida majburiyatlar hisobi	47
8. Tijorat banklarida kapital hisobi	52
9. Tijorat banklarida daromad va harajatlar hisobi	59
10. Biznesni birlashtirish va konsolidatsivalashgan moliyaviy hisobot	70
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda bank va moliya tizimining tutgan o'рни beqiyosdir. SHuningdek, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari haqida umumiy tushuncha, mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobining o'рни va ahamiyati, buxgalteriya hisobining xalqaro modellar, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, modeli muhim ahamiyatiga ega. O'z navbatida, biznes va boshqaruv faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislarga alohida talablar qo'yilganligi sababli, ushbu fan nazariy fan hisoblanib, iqtisodiyotimizga malakali kadrlarni yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi.

“Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari” fanini o'qitishning maqsadi kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislarni bo'lib yetishadigan talabalar uchun banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha nazariy bilim berish orqali ko'nikmalar xosil qilishdan iborat.

Bank infratuzilmalari kengayib borgan sari ularning mijozlari soni va shunga mos ravishda bajaradigan operatsiyalari ko'lni hamda soni ham ko'payib boradi. Demak, bank operatsiyalarini jahon andozalari talablari asosida tez va to'g'ri bajarish, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun malakali bank xodimlari talab etiladi.

Shuningdek, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy qilish, buxgalteriya hisobini jahon standartlariga moslashtirish bilan bog'liq jarayonlar yuzaga kelmoqda. Bu, o'z navbatida tijorat banklari faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur axborotlar bazasini vujudga keltiruvchi tizim sifatida buxgalteriya hisobini va uning uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Magistrlarga banklarda buxgalteriya hisobini buxgalteriya hisobining milliy

va xalqaro standartlari asosida yuritish bo'yicha malakalarini hosil qilish va mustahkamlashdan iboratdir.

Bunday masalalarni atroflicha hal etishda tijorat banklarida buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar asosida tashkil etish, jahon tajribasini o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha talabalarga nazariy hamda amaliy tajribalarni o'rgatish hamda talabalarni banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha aniq bilim va ko'nikmalarni hosil qilish taqozo etiladi.

**1-Mavzu. BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO
STANDARTLARI VA ULARNING TUZILISHI.**

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 min.)	1.1.O'quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'tiladigan mavzular to'g'risida qisqacha tanishtiradi. 1.2.O'quv kursi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi.	Eshitadi.
2-bosqich Asosiy bosqich. (65 min)	2.1. Talabalarni bilimini oshirish maqsadida yo'naltiruvchi savollar bilan murojat etadi: Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining o'рни va ahamiyati? Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining tavsiflari. MHXS tarkibi va tuzilishi haqida tushuncha, halqaro standartlarning mohiyati va ahamiyati? Savollarga javob berishlari uchun talabalarni juftlikka ajratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Ekranga 1-slaydni chiqazib «Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining o'рни va ahamiyati» predmeti sxemasiga tushuncha berib o'tib, uning tarkibiy tuzilishi bilan tanishtirib va unga qisqacha yakun yasaydi. 2.3. Ekranga 2-slaydni « Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari» haqida tushuncha fanining tizimi to'g'risidagi chizmani chiqazib, talabalarni bu kurs bo'yicha o'tiladigan mavzular bilan,	Savollarga javob beradi. 1- slayd bilan tanishib, o'zlarini fikrlarini bayon etishadi. 2- slayd bilan tanishib, reyting nazorat talablarini yozib

	reytingi bilan, shuningdek, joriy, oraliq va yakuniy ko'rsatkichlari, mezonlari bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxati va talabalarga bo'lgan asosiy talablar bilan tanishtiradi. 2.4. Mavzuning rejasi bilan tanishtirib, bunda asosan ko'rgazmali materiallardan va yo'naltiruvchi savollardan foydalanadi: 1. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellar BHXS Qo'mitasi - xalqaro tashkilot sifatida va uning vazifalari? 2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining tavsiflari. MHXS tarkibi va tuzilishi. Talabalarni mavzuning asosiy maqsadiga qaratadi va yozib olishlarini taklif qilib yakun yasaydi.	Chizma, jadval va ko'rgazma materiallarni tuzilishi bilan tanishadilar, savollar berib aniqlaydilar. Asosiy va keraklilarini yozib oladilar.
3-bosqich. (10 min.)	3.1. Talabalarni mavzuni qanday darajada o'zlashtirganliklarini bilish uchun ularga savol bilan murojat qiladi: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibi va tuzilishi? Talabalar bilan blits-so'rov o'tkazadi. Yakuniy xulosa qiladi. 3.1. Talabalarga mustaqil bajarishlari uchun uyga vazifa beradi: jadval tuzing.	Savollarga javob beradilar. Eshitadilar aniqlaydilar va yozadilar.

1-Topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping

1. Xalqaro standartlarning maqsadi?
2. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellar?
3. BHXSning asosiy maqsadi?
4. Moliyaviy hisobotning sifat tavsiflari?
5. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellari:

- Amerika Britan modeli;
- Kontinental model;
- Lotin Amerikasi modeli;
- Islom modeli;

2-Topshiriq. Quyidagi mavzulardan biri bo'yicha mustaqil ish tayyorlang.

- Tijorat banklari buxgalteriya hisobi hisobvaraqaalari rejasini o'rganish;
- Buxgalteriya hisobining shakllanishi va fan sifatida tan olinishi.
- Buxgalteriya hisobining fan sifatida tanilishida Luko Pachcholineing xizmatlari.
- BHXS Qo'ni tasi -xalqaro tashkilot sifatida va uning vazifalari.
- Banklarda buxgalteriya provodkalarini bajarish asoslari.
- BHXS ning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun foydaliligi.
- Buxgalteriya hisobi foydalanuvchilari va ularning axborotga oid talablari.
- Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va shartlari.

3-Topshiriq. Quyidagi testlarning to'g'ri javobini toping.

1. Buxgalteriya hisobi deganda nimani tushunasiz?

A) Iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda eng keng doiradagi foydalanuvchilarga foydali bo'lgan bank yoki korxona haqida moliyaviy ma'lumot bilan ta'minlash kabi muhim vazifani bajaradi;

B) Ma'lum bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi sub'ektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizim;

V) Buxgalteriya hisobi iqtisodiy ma'lumotlarni yig'adi, qayta ishlaydi, moliyaviy hisobotlar tayyorlaydi;

G) A, B va V javoblar to'g'ri.

2. Dunyoda kim birinchi bo'lib buxgalteriya hisobi nazariyasini yaratgan deb faraz qilinadi?

- A) Italiyalik Luko Pachcholi;
- B) Italiyalik Fernando Lukos;
- V) Avstriyalik Leonardo Kapri;
- G) To'g'ri javob yo'q.

3. Ikki yoqlama yozuvga qaysi asarda asos solingan?

- A) Arifmetika va geometriya asoslari;
- B) Buxgalteriya - biznes tili;
- V) Buxgalteriya hisobining ilk namunalari;
- G) Arifmetika, geometriya summasi, mutanosiblik va nisbatlar haqida.

4. Bu kitob kim tomonidan va qachon yozib tugatilgan?

- A) Italiyalik Luko Pachcholi, 1493 yil;
- B) Italiyalik Fernando Lukos, 1486 yil;
- V) Avstriyalik Leonardo Kapri, 1678 yil;
- G) To'g'ri javob yo'q.

5. Kitobning qaysi bo'limida ikki yoqlama yozuvning ilk bor ta'rifi berilgan?

- A) 5-bo'lim Ikki yoqlama yozuvning mazmuni;
- B) 7-bo'lim Buxgalteriya hisobi;
- V) 11- bo'lim Hisobvaraqlar va yozuvlar haqida;
- G) 3-bo'lim Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari.

6. Kimlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilariga kiradi?

- A) Mavjud va bo'lg'usi investorlar;
- B) Xodimlar, kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa savdo kreditorlari;
- V) Hukumat va uning idoralari, jamoatchilik, auditorlar, maslahatchilar;
- G) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (BXXS) qanday tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va chop etilgan?

- A) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Qo'rni tasi;
- B) Professional buxgalterlar Assotsiatsiyasi;
- V) Banklar Assotsiatsiyasi;
- G) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Assotsiatsiyasi

3-Topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarlarga ta'rif bering.

- 1. *Tushunarlilik*
- 2. *O'rinlilik*
- 3. *Muhimlik*
- 4. *Ishonchlilik*
- 5. *Mazmunining shakldan ustunligi*
- 6. *Moliyaviy hisobotdagi betaraflilik*

2- MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA MHXSLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TUZISH ASOSLARI

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Keys-stadi usulidan foydalanib amaliy mashg'ulot o'tkazish
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	Mavzuning mazmuniga kirish. savollarni muxokama qilish: 1. Moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari. Moliyaviy hisobotlarning elementlari, moliyaviy ahvol va uni baholash; 2. Moliyaviy hisobotlar elementlarini tan olish va tan olish mezonlari. Aktivlarni tan olish, majburiyatlarni tan olish, daromadlarni tan olish, harajatlarni tan olish; 3. Keysning yechimini topish bo'yicha individual ishlash. 3. Keysning yechimi bo'yicha taqdimot. 4. Mashg'ulot bo'yicha yakuniy xulosa qilish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Banklarda mxslari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish asoslari to'g'risida olgan nazariy bilimlarni masalalar yechish (keys-stadi) orqali mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • o'tilgan nazariy savollarni mustahkam lash; • muammoni aniqlash va uni hal qilish bo'yicha individual, guruhlardagi bilim va ko'nikma hosil	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: • mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va ularga izoh bera oladi; • muammoni aniqlaydi va uni xal qila oladi; • mantiqiy fikrlay oladi; • mustaqil boshqaruv qarorini qabul qilish

qilish; • mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;	ko'nikmasi shakllanadi va o'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirganlik darajasini baholaydi.
<i>O'qitish usullari</i>	Keys-stadi usulidan foydalanilgan amaliy mashg'ulot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, tijorat banklarining balansi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tarqatma materiallari, Prezidenti qarori, topshiriqlar va doska.
<i>O'qitish shakli</i>	Individual va guruhda ishlash usuli.
<i>O'qitish sharti va sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baho</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriq

Keys-stadili amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi	Talabalar
Tayyorlanish bosqichi	Talabalarni keys-stadi bo'yicha Mashg'ulot o'tkazishga tayyorlaydi va ularga tarqatma materiallar beradi. Talabalarni materiallar bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Keysning mazmuni bilan tanishadilar va uning yechimini topadilar.
1-bosqich (8min)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini va natijasini e'lon qiladi. Moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari. Moliyaviy hisobotlarning elementlari, moliyaviy ahvol va uni baholash.	1.1. Eshitadilar. 1.2. Tanishib chiqadilar

	keys-stadining maqsadi (1-ilova) va ahamiyati tushuntiriladi.	
2-bosqich Asosiy (62 min)	2.1. Kuyidagi blits-savollarga o'ylab javob berishlarini suraydi: (2-ilova) Blits-so'rov o'tkazadi, savol-javob jarayonida aniqlashtiriladi va yunaltiradi. 2.2. Keys-stadining mazmuni, o'tkazish shakli va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 2.3. Har bir tinglovchiga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi va individual ishlash uchun topshiriqlar beradi. 2.4. Tinglovchilarni 4 guruhga xech qanday mezonisiz taqsimlaydi va spikerni tayinlaydi.	2.1. Savollarga javob beradilar. 2.2. Eshitadilar. 2.3. Tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadilar. 2.4. Toshiriqni keys- stadi usulidan foydalanib bajaradi va yoqlaydi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va yechilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil lozimligi tushuntiriladi.	Eshitishadi va yozib olishadi *

**1- Topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob
toping**

1. Aktivlar.
2. Dastlabki qiymat.
3. Moliyaviy hisobotlar.
4. Moliyaviy hisobot elementlarini baholash.
5. Tan olish.
6. Foyda.
7. Zararlar.

**2- Topshiriq. Berilgan ma'lumotlaraga asosan quyidagi
masalani yeching:**

Masala

“Kapital bank”da 2016 yil may oyida quyidagi operatsiyalar bajarilgan.

1. 1-may Oddiy aksiyalarni chiqarishdan 800,0 ming so‘m pul mablag‘i oldi.
2. 3-may. Bank kreditga 1 mln.so‘mlik idora jihozlari oldi.
3. 3-may. Bank arzon va tez eskiruvchi buyumlar uchun mol sotuvchiga 50,0 ming so‘m to‘ladi.
4. 4-may. Bank mijozga 15-mayda asosiy qarzni va yillik 12% daromadni qaytarish sharti bilan 500,0 ming so‘m kredit berdi.
5. 15-may. Mijozdan 4-mayda berilgan 500,0 ming so‘m kredit va 12% ustama daromad qabul qilindi.
6. 16-may. 1 mln. so‘mga qarzga olingan idora jihozlari uchun mablag‘ to‘landi.
7. 17-may. Mahalliy gazetadagi reklama uchun bank 150,0 ming so‘m to‘ladi.
8. 28-may. Mijozga xizmat ko‘rsatganlik uchun 420,0 ming so‘m mablag‘ olindi.

9. 29-may. Bank soatbay ishlaydigan materiallar bo'yicha buxgalterga 85,0 ming so'm ish haqi hisobladi.

10. 30-may. Bank lizing kompaniyasining 600,0 ming so'mlik aksiyalarini oldi.

11. 31-may. Bank telefon kompaniyasiga 110,0 ming so'm to'lovni amalga oshirdi.

12. 31-may. 200,0 ming so'm dividend to'landi.

12. 31-may. 850.0 ming so'm ish haqi to'landi.

Talab qilinadi:

1. Operatsiyalar uchun jurnal oching
2. Jurnaldagi operatsiyalar uchun provodkalar tuzing.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *bahs muzokaralar, pinbord texnikasi, delfi texnikasi.*

3- Topshiriq. Quyidagi savollar bo'yicha referat tayyorlang va taqdimot qiling:

Bank moliyaviy hisobotlarining elementlari.

- 36- MHXS -Aktivlarning qiymatining pasayishi.
- Bank hisobotlarini tuzish va yuqori bank tashkilotiga, Markaziy bankka va boshqa tegishli idoralarga taqdim etish tartibi;
- Anuitetning joriy va bo'lg'usi qiymatini aniqlash.
- Moliyaviy risklar va ularni baxolashda buxgalteriya hisobining zaruriyati;
- BHXS ning asosiy shartlari va ularni qo'llash zaruriyati

4 - Topshiriq. Quyida keltirilgan testlarni to'g'ri javobini toping :

1. Moliyaviy hisobotning maqsadi nimalardan iborat?

- A) Moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot taqdim etish;
- B) Hammaga moliyaviy faoliyat haqida umumiy axborot berish;
- V) Kelgusida bo'ladigan operatsiyalarning to'g'riligi haqida ma'lumot berish;
- G) Iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumot bilan ta'minlash.

2. Moliyaviy ahvol to'g'risidagi ma'lumot qaysi hujjatda beriladi?

- A) Balans hisobotida beriladi;
- B) Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda;
- V) Debitorlar va kreditorlar to'g'risidagi hisobotda;
- G) Oborotlar va qoldiqlar qaydnomasida.

3. Korxona yoki bank faoliyatining natijalari qanday hisobotda aks etiriladi?

- A) Balans hisobotida beriladi;
- B) Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda;
- V) Debitorlar va kreditorlar to'g'risidagi hisobotda;
- G) Oborotlar va qoldiqlar qaydnomasida.

4. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari Qo'mitasi qachon va qayerda birinchi marta tashkil etilgan?

- A) Germaniyada, 1972 yil;
- B) Germaniyada, 1985 yil;
- V) Amerikada, 1973 yil;
- G) Bryusselda, 1980 yil.

5. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari Qo'mitasi hozirgi kunda nima deb nomlanadi?

- A) Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari Qo'mitasi;

- B) Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari Kengashi;
- V) Buxgalteriya hisobotlari xalqaro standartlari Kengashi;
- G) Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari Assotsiatsiyasi.

6. Nega turli davlatlarda har xil standartlar qabul qilingan?

- A) Har tomonlama qulayligi hisobga olingan;
- B) Har xil davlatlarning mentaliteti, rivojlanish xususiyatlari mavjud;
- V) Har xil davlatlar o'z qonunchiligini ustun qo'yadi;
- G) Har xil davlatlarda buxgalteriya hisobining rivojlanish darajasi turlichadir.

7. Hisob tsikli bu:

- A) Bosh kitob bo'yicha operatsiyalarning hammasini ro'yxatga olish;
- B) Yordamchi kitob bo'yicha barcha operatsiyalarni jamlash va rasmiylashtirish jarayonlarining yig'indisi;
- V) Hujjatlarni rasmiylashtirishni yakunlash;
- G) Xo'jalik operatsiyalarini tahlil qilishdan to hisobvaraqlarni yopish va moliyaviy hisobotlarni tuzishgacha bo'lgan jarayon.

8. Moliyaviy hisobot elementlarini baholashda qo'llaniladigan usullar.

- A) Dastlabki qiymat, amal qilish qiymati, yangi qiymat;
- B) Qoplash qiymati, tiklash, dastlabki qiymat, diskontlangan qiymat;
- V) Diskontlangan qiymat, dastlabki qiymat;
- G) Barcha javoblar to'g'ri.

9. Transformatsiya jadvalini tuzish necha bosqichdan iborat?

- A) Uch bosqich;
- B) Ikki bosqich;
- V) Olti bosqich;
- G) Besh bosqich.

10. Tuzatuvchi (transformatsiyaviy) o'tkazmalar quyidagi hollarda zarur:

- A) Ro'yxatga olingan xarajatlar ikki yoki undan ortiq davrlarga bo'linganda;

- B) Ro'yxatga olingan daromadlar ikki yoki undan ortiq davrlarga bo'linganda;
- V) Ro'yxatga olinmagan daromadlar va xarajatlar mavjud boisa;
- G) Barcha javoblar to'g'ri.

3-Mavzu: Banklarning moliyaviy hisobotlari va ularni tuzish.

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (5 min)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini tushuntirib, o'quv mashg'uloti guruh bilan ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e'lon qiladi. 1.2 Banklarning moliyaviy hisobotlari va ularni tuzish bo'yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida savol-javob o'tkazadi. Ularga quyidagi savollar bilan murojat etadi: bank aktivlarini daromadlilik jihatlari tahlili, bank aktiv va passivlarini mutanosibligini tahlili, bank aktivlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili. 1-2 ta talabalarning javobini eshitib, qolgan savol-javoblarni har bir guruh berilgan topshiriqni bajarganidan so'ng,	Eshitadilar, yozadilar. Savollarga javob beradilar.

	guruhlar prezentatsiyasidan keyin davom etishini e'lon qiladi.	
2-bosqich Guruhlarda ishlash (20 min.)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi. Guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. O'quv topshirig'ini tarqatadi. Qanday o'quv natijalari ga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi. Guruh ishini baholash ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi. Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruzalar matni). Guruhlarda ishlash boshlanganligi haqida e'lon qiladi.	O'quv topshiriqlari shuningdek, baxolash ko'rsatkichlar va mezonlari bilan tanishadilar. Topshiriqni bajarishga kirishadilar.
3-bosqich Prezentatsiya (45 min.)	3.1. Prezentatsiyani tashkillashtiradi. 3.2. Guruhlarda ishlash natajalarini guruhdagilarni o'zlari baholashlarini e'lon qiladi. 3.3. Bilimlarni birlashtiradi va asosiy e'tibomli ish faoliyatida olingan	Umumiy bajarilgan ishning prezentatsiyasida qatnashadilar, to'ldiradilar, baholaydilar.

	natijalarga qaratadi.	
4-bosqich Yakuniy (10 min)	4.1. Qilingan ishga yakun yasaydi. 4.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: quyidagi mavzuga esse yozish kerak «Bank aktiv va passivlarini mutanosibligini tahlili».	4.1. Eshitishadilar, aniqlaydilar. 4.2. Topshiriqni yozib oladilar.

Guruhda ishlash qoidalari.

1-ilova

- > Har bir talaba guruhdoshini o'zining hurmati va e'tiborliyligi bilan eshita bilishi lozim.
- > Har bir talaba faol qatnashib, berilgan topshiriqni birgalikda javobgarlik xissi bilan bajarishi lozim.
- > Har bir talaba agar unga yordam kerak bo'lsa, albatta guruhdoshidan yordam so'rashi lozim.
- > Har bir talaba agar undan guruhdoshi yordam so'rasa unga albatta yordam berishi kerak.
- > Har bir talaba guruhlar bajargan ishni baholash natijalarida qatnashishi lozim.
- > Har bir talaba tushunishi kerak: boshqalarga yordam bergan holda, o'zlari ham o'rganadilar! Hammamiz bir kadamiz: birga suzib chiqamiz yoki cho'kib ketamiz!

**«Stol atrofida» berilgan masalani muhokama qilib
o'tkazish uchun ko'rsatma:**

1. So'zga chiquvchini fikrini e'tibor bilan, gapini bo'lmasdan, eshitish.
2. Agar sen uning aytgan fikr-mulohazasiga rozi bo'lmasang unda, o'z fikr-mulohazangni aytish uchun ruxsat so'ra.
3. Agar sen so'zga chiquvchining fikr-mulohazasi bilan rozi bo'lsang, ko'rilayotgan savol bo'yicha qo'shimcha qilishni so'ra.

Guruh ishini baholash varag'i.

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	Soʻzlab berishi (aniqlilik va tushunarlilik, xulosalarning asoslanganligi)				Topshiriqning bajarilishi (toʻgʻriligi va izchilligi)			
	aʻlo 2,0- ball	yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqars iz 0,5- ball	aʻlo 2,0- ball	yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsi z 0,5- ball
1								
2								
3								

1-Topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping

- 1-sonli BHXS.
- Bosh kitob.
- Daromadlar.
- Moliyaviy hisobotlar.
- Xarajatlar.
- Foyda.
- Zararlar.
- Tuzatuvchi oʻtkazmalar.
- Pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobot.

2-Topshiriq. Amaliy mashgʻulotda koʻriladigan savollar:

I. Darsning 1-qismida talabalar tomonidan mavzuning nazariy. jixatdan oʻzlashtirilganlik darajasi savol-javoblar koʻrinishida tekshiriladi.

Quyidagi savollar boʻyicha savol-javob oʻtkaziladi:

1. Hisobot siklining bosqichlari.
2. Sodir etilgan operatsiyalar va boshqa xodisalarni aniqlash, ularni yordamchi kitoblarda qayd etish va Bosh kitobga o'tkazish.
3. Tuzatuvchi o'tkazmalar berish, tuzatilgan balans jadvalini tuzish.
4. Tijorat banklarn tomonidan tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning turlari.
5. Balans hisobotining mazmuni va tarkibi, uning elementlari.
6. Balans moddalari. Balansdan tashqari moddalar.
7. Foyda va zararlar to'g'risida xisobot, uning mazmuni, tarkibi va elementlari.
8. Foyda va zararlar to'g'risida xisobot moddalarini tuzish qoidalari.
9. Pul oqimlari to'g'risidagi xisobot, uni tuzish maqsadi, mazmuni va taokibi.
10. Pul oqimlari to'g'risidagi xisobot moddalarining tavsiflash va tuzish qoidalari.
11. Kapital o'zgarishlar to'g'risida xisobotining mazmuni va uning tarkibi, elementlari.
12. Kapital o'zgarishlar to'g'risida xisoboti moddalrining tuzish qoidalari.

II. Darsning 2-qismida talabalarga masalalar to'plarnidan masalalar ishlatiladi va nazariy tomondan olingan bilimlar mustahkamlanadi.

Amaliyot darsiga bir necha bankning moliyaviy hisobotlari olib kelinib, talabalarga uni tuzish tartibi, bank moliyaviy holaitiga baxo berish bilan b'ogiiq ish o'yinlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

Amaliy vazifalar:

1. Mavzu bo'yicha masala ishlash.
2. Banklarning Moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *insert jadvali, kontseptual jadval, BBB jadvali.*

(ming so'm)

	Moddalar	2015 yil	2014 yil
	Foiz daromadi		
Oil	Kreditlar bo'yicha foiz daromadi	300 934 633	208 899 213
012	O'zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foiz daromadi	1 399 787	1 418 641
013	Olish va sotish uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadi - savdo		
014	Olish va sotish uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadi - nosavdo		
015	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar bo'yicha foiz daromadi	1 132 573	1 993 153
016	Co'ndirilguncha ushlab turilgan investitsiyalar bo'yicha foiz daromadi		
017	Teskari REPO bitimlari bo'yicha foiz daromadi		
018	Moliyaviy ijara bo'yicha foiz daromadi		
019	Boshqa foiz daromadlari		
020	Jami: foiz daromadlari	303 466 993	212 311 007
	Foiz xarajatlari		
031	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foiz xarajatlari	-334 245	-226 502
032	Jamg'arma depozitlar bo'yicha foiz xarajatlari	-10 715 887	-9 502 421
033	Muddatli depozitlar bo'yicha foiz xarajatlari	-23 146 951	-23 582 000
034	Depozit sertifikatlar bo'yicha foiz xarajatlari	-5 088 132	-4 675 960
035	Hukumat hisobvaraqlari bo'yicha foiz xarajatlari		

036	O'zR MBga to'lanadigan hisobvaraqlar bo'yicha foiz xarajatlari		
037	Boshqa banklarga to'lanadigan hisobvaraqlar bo'yicha foiz xarajatlari	-22 721 519	-23 167 633
038	Boshqa qarz mablag'lar bo'yicha foiz xarajatlari	-72 344 149	-41 532 644
039	Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz xarajatlari		
040	REPO bitimlari bo'yicha foiz xarajatlari		
041	Boshqa foiz xarajatlari		
050	Jami: foiz xarajatlari	-134 350 883	-102 687 160
060	Sof foiz daromadi	169 116 110	109 623 847
070	Kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni (baholash) qayta tiklash	-72 314 384	-49 291 324
080	Zaxirani baholash chegirib tashlanganidan keyingi sof foiz daromadi	96 801 726	60 332 523
	Foizsiz daromad		
091	Vositachilik haqlari va xizmat haqlaridan olingan daromad	115 084 861	99 784.034
092	(Vositachilik haqlari va xizmat haqlari to'lash bo'yicha xarajatlari)	-18 815 635	-16 379 080
093	Savdo operatsiyalaridan foyda (zarar)	8 632 219	11 513 440
094	Valyuta operatsiyalaridan foyda (zarar)	2 161 416	472 365
095	Dividendlar tarzidagi daromad	-5 791 396	-650 079
096	Investitsiyalardan foyda (zarar)	320 598	49 623
097	Dexqon xo'jalik jamiyatlari va qo'shma korxonalar foydasi (zarari)	-4 759 822	-1 061 033
098	Sof pul moddalaridan foyda (zarar)	3 602 170	3 388 645

099	Boshqa operatsiya daromadlari		
100	Jami: foizsiz daromad	100 434 411	97117 915
	Operatsiya xarajatlari		
111	Xodimlarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar	-86 559 359	-67 716 495
112	Daromad solig'idan tashqari soliq	-21 215 555	-15 988 474
113	Qo'riqlash xarajatlari	-10 407 451	-10 407 451
114	Asosiy vositalarning eskirishi	-8 580 546	-6 880 829
115	Xayriya xarajatlari	-4 202 673	-4 202 673
116	Ijara va ta'minot xarajatlari	-1 464 796	-1 506 038
117	Transport va xizmat safari xarajatlari	-1 832 165	-1 571 188
118	Boshqa operatsiya xarajatlari	-16 423 113	-13 760 851
120	Jami: operatsiya xarajatlari	-150 685 658	-122 033 999
130	Daromad (foyda) solig'idan oldingi sof foyda	46 550 479	35 416 439
	Tugallangan operatsiyalar bo'yicha ko'rilgan foyda (zarar)	2 835 532	-1 138 981
140	Daromad (foyda) solig'ini baholash	-9 395 424	-10 635 814
150	Sof foyda	39 990 587	23 641⁶⁴⁴
151	Boshqa umumiy daromad	825 271	553 278
152	Jami umumiy daromad	40 815 858	24 194 922
160	Bir oddiy aktsiyaga to'g'ri keladigan bazaviy va taqsimlanmagan foyda	387	351
170	Bir oddiy aktsiyaga to'g'ri keladigan bazaviy va taqsimlanmagan foyda	350	691

**PUL MABLAG'LARINING HARAKATI TO'G'RISIDAGI YIG'MA
BALANS HISOBOTI**

(ming so'm)

	Moddalar	2015	2014
	Operatsion faoliyatidan kelgan pul oqimlari		
020	Olingan foizlar	293 173 737	207 895 147
030	To'langan foizlar	-125 413 347	-118 477 860
040	Vositachilik haqlari va xizmat haqlari tarzida olingan pul mablagTari	113 111 160	100 078 176
050	Vositachilik haqlari va xizmat haqlari tarzida to'langan pul mablagTari	-18 815 635	-16 379 080
060	Diling operatsiyalari bo'yicha amalga oshgan sof foyda (zarar)	5 914 780	
070	Xodimlar ta'minoti uchun sarflangan xarajatlar	-84 143 039	-65 160 285
080	Ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar uchun sarflangan xarajatlar	-53 442 323	-52 382 503
090	Boshqa operatsiya daromadlari	3 118 870	3 614 240
100	Mol etkazib beruvchi va xodimlarga to'langan pul mablagTari		
110	To'langan daromad (foyda)solig'i	-13 633 300	-5 693 935
140	Operatsion aktivlari va majburiyatlarda o'zgarishlar yuz berishidan oldin operatsiya faoliyatidan olingan pul oqimlari	119 870 903	53 493 900
150	Operatsiya aktivlarining sof (ko'payishi) kamayishi:		

151	Banklarga berilgan kreditlar va bo'naklarning sof ko'payishi (kamayishi)	-132 944 967	15 725 624
152	Mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklarning sof ko'payishi (kamayishi)	-1 631 540 591	-979 870 384
153	Boshqa aktivlardagi sof (ko'payish) kamayish	-17 235 092	-5 382 645
160	Operatsiya majburiyatlarining sof (ko'payishi) kamayishi:		
161	Depozitlardagi sof ko'payish (kamayish)	83 666 087	469 995 896
162	O'zR MB va hukumatga to'lash hisobvaraqlari bo'yicha sof ko'payish (kamayish)	55 334 384	7 473 392
163	Boshqa majburiyatlar bo'yicha sof ko'payish (kamayish)	-1 976 198	1 671 020
170	Operatsion faoliyatidan kelgan sof pul mablag'lari	-1 524 825 474	-436 893 197
	Investitsiya faoliyatidan kelgan pul oqimlari		
180	Olingan dividendlar	2 161 416	639 151
181	Operatsion faoliyat sifatida tasniflanadigan boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish	-2 876 085	-44-60 954
182	Operatsion faoliyat sifatida tasniflanadigan boshqa qimmatli qog'ozlarni sotish	111 848	7 129 661
183	Sho'ba, qaram xo'jalik jamiyatlari va qo'shma korxonalarni sotib olish, sotib olingan pul mablag'larini hisobga olinmagan holda	-500 000	
185	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish	-31 720 212	-50 769 485

186	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotish	11 135 174	1 361 050
187	Shcho"ba korxonaga egalik qilishdan tushgan tushum	17 717 724	
188	Tasarufidagi qaram xo'jalik jamiyatlaridan olingan daromad	52 190	166 799
200	Investitsiya faoliyatidan kelgan sof pul mablag'lari	-3 917 945	-45 933 778
	Moliyaviy faoliyatdan kelgan pul oqimlari		
290	Qarz mablag'lar va qarz qimmatli qog'ozlardan tushumlar	2 164 934 732	1 061 225 600
300	Qarz mablag'lar va qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlar	-649 164 912	-120 174 819
310	Moliyaviy ijara bo'yicha to'lovlar		
320	Aktsiyalar chiqarish	63 656 046	85 245 078
330	Aktsiyalarni bekor qilish		
340	O'z aktsiyalarini sotib olish		
350	Sotib olingan o'z aktsiyalarini sotish	-415 536	1 636 415
360	Pul dividendlari to'lash	-11 261 174	-6 764 174
370	Inflyatsiyaning moliyaviy faoliyatga ta'siri		
380	Moliyaviy faoliyatdan kelgan sof pul mablag'lari	1 567 749 156	1 021 168 100
390	Valyuta kursi o'zgarishining pul mablag'lariga va pul ekvivalentlariga ta'siri	2 037 908	1 307 914
400	Inflyatsiyaning pul mablag'lariga va pul ekvivalentlariga ta'siri		
410	Pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining sof ko'payishi (kamayishi)	41 043 645	539 649 039

420	Yil boshidagi pul mablag'lari va ekvivalentlari	1 310 638 816	770 989 777
430	Yil oxiridagi pul mablag'lari va ekvivalentlari	1 351 682 461	1 310 638 816

Sodir etilgan operatsiyalar va boshqa xodisalarni aniqlash, tahlil qilish, ularni yordamchi kitoblarda qayd etish va Bosh kitobga o'tkazish tartibini tushuntirib bering?

3 -Topshiriq. Sinov balansini tuzing.

Bank kreditlari bo'yicha foizlidaromadlar	- 40.500.000 so'm
Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadla	- 5.500.000 so'm
Boshqa daromadlar	- 20.000.000 so'm
Foizli xarajatlar	- 30.000.000 so'm
Foizsiz xarajatlar	- 2.000.000 so'm
Operatsion xarajatlar	- 10.000.000 so'm
Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasi	- 8.000.000 so'm

Bu summalarni tegishli buxgalteriya yozuvlari orqali "jamlangan foyda" hisobvarag'iga o'tkazaing.

Bank daromadlari hisobvaraqlari qoldiqlarini "Jamlangan foyda"

hisobvarag'iga o'tkazish tartibini tushuntiring va o'tkazing

Hisobvaraq nomi	Debet	Kredit
Bank kreditlari bo'yicha foizli daromadlar		
Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar		
Boshqa daromadlar		
"Jamlangan foyda"		i

**Bank xarajatlari hisobvaraqlari qoldiqlarini “Jamlangan foyda”
hisobvarag‘iga o‘tkazng**

Hisobvaraq nomi	Debet	Kredit
Foizli xarajatlar		
Foizsiz xarajatlar		
Operatsion xarajatlar		
“Jamlangan foyda”		

Foyda summasini “Sof foyda/zarar” hisobvarag‘iga o‘tkazing

Hisobvaraq nomi	Debet	Kredit
“Jamlangan foyda”		
“Sof foyda (zarar)”		

1- TOPSHIRIQ. Testlarni ishleng:

1- sonli BHXS:

- A) Umumiy yo‘nalishdagi moliyaviy hisobot muayyan ma’lumotga talablarni javob beradigan hisobotni talab etish imkoniyati bo‘lmagan foydalanuvchilarning talablarini qondirish uchun tayyorlanadi.
- B) U aloxida takdim etiladigan yoki ommaviy xujjatlarning bir qismini taqdim etadigan hisobot shakllarini o‘z ichiga oladi.
- C) Hamma uchun maqbul barcha ma’lumot beradi
- D) A va V javoblar to‘g‘ri**

2. “Aktivlar” bo‘limi o‘z ichiga quyidagi moddalarni oladi:

- A) Naqd pullar, Markaziy bank va boshqa banklardan olinishi kerak bo‘lgan pullar
- B) Sotish va so‘ndirish uchun mavjud bo‘lgan naqd investitsiyalar, mijozlarga berilgan kreditlar va bo‘naklar, lizing
- C) Asosiy vositalar va bankning boshqa mulklari

D) A, V va S javoblar to'g'ri

3. 1-sonli BHXs bo'yicha daromadlar va xarajatlar tahlilida ikki yondoshish mavjud. Bular:

A) Harajatlarni tavsifi bo'yicha va xarajatlar vazifalari bo'yicha

B) Daromadlarni tavsifi bo'yicha

C) Harajatlarni tavsifi bo'yicha va daromadlar vazifalari bo'yicha

D) To'g'ri javob ko'rsatilmagan.

4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot -

A) 8-MXXS

B) 7-MXXS

C) 1-MXXS

D) 17-MXXS

4- MAVZU: BANKLARDA HISOB SIYOSATI, BUXGALTERLIK BAHOLASHDAGI O'ZGARISHLAR VA XATOLAR

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotig akirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza-konferentsiyasini olib boruvchi bilan tanishtirib, o'quv faoliyatida rejalashtirilgan ishning maqsadi bilan tanishtiradi. 1.2. Ma'ruza-konferentsiyasini diskussiya shaklida olib borilishini e'lon qiladi va maruza mavzularini eslatib o'tadi (1-ilova) va diskussiya o'tkazish tartibi bilan tanaishtirib, «Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari» jadvalini ekranga chiqazadi (2-ilova). Qatnashuvchilarni ish faoliyatini baholash uchun Ekspert guruhini tashkillashtiradi.	Eshitadi va yozil oladi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Talabalarni tayyorgarlik maruzalari va xabarlarini chiqishlarini tashkil etadi. E'tibor bilan materiallar mazmunini ochib berilishi logikasini kuzatadi. Agar ko'rilyotgan materialni taxlil qilish kerak bo'lib qolsa, maruzachi talabani vaqtincha bir necha vaqtga to'xtatib, seminami jamoa bilan xal qilishga o'tkazadi. - savollar beradi (3-ilova); -maruzani asosiy xolini aniqlaydi;	2.1. Maruzach: maruzaini o'qiydi, Taqrizchi dok-ladni ijobiy va salbiy tomonlarini belgilab boradi. Oponentlar o'z fikrla-rini bayon etib, savollar berishadi.

	- aytib o'tilgan fikr-muloxazalarga o'zining qiziqishini ko'rsatadi. Xar bir maruzaning xal qilinishidan keyin, ularni umumlashtirgan xoldi yakun yasaydi.	2.2. Qatnashuvchilar disskutsiya qili umum jamoa bila: maruzani mazmunini xa qili-shadi. Ekspertlar maruzachilarni, taqrizchilarni v; opponentlar-ni baholashadi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Olingan o'quv natijalarni umumlashtirib, yakun yasaydi va faol qatnashganlarni maqtab o'tadi. 3.2. Mustaqil tayyorlash uchun uyga vazifa beradi.	Talabalar Eshitad va yozib oladi.

1- Topshiriq. Savollarga adabiyotlar va internet saytlaridan javob toping

- 1. Birlamchi hujjat.**
- 2. Moliyaviy hisobotlar.**
- 3. Hisob siyosati.**
- 4. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar.**
- 5. Tuzatuvchi o'tkazmalar.**

2- Topshiriq. AMALIY MASHG'ULOTDA KO'RILADIGAN SAVOLLAR:

1. Banklarda hisob siyosati, uning maqsadi va tarkibi.
2. Hisob siyosatiga qo'yiladigan talablar.

3. Hisob siyosatida buxgalterlik baholashdagi o'zgarishlar va xatolarnig aks ettirilishi.

Ushbu savollar quyidagi kichik savollar yordamida ko'rib chiqiladi:

1.O'zbekiston Respublikasi Milliy standartlarining mazmunini va undagi qaysi standartlar bank tizimiga taa'luqli ekanligini tushuntirib bering.

1. Hisob siyosatining mazmuni nimadan iborat?
2. Hisob siyosatining konseptual asoslarida nimalar ko'rsatiladi.
3. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobot taqdim etishning o'tgan davriga jiddiy ta'sir qilgan xollarda banklar tushuntirishlarida qanday axborotni yoritib berishi talab etiladi?
4. Fundamental xatolarning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Bank balansida yil boshiga taqsimlanmagan foydaning qoldig'idagi fundamental xatolari aks ettirilganda qanday axborotlar ochib berilishi lozim?
6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi avvalgi davrlar hisobotlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishda aniqlangan summa moliyaviy natijalarning qaysi moddasiga kiritiladi?

Amaliy vazifalar:

1. Mavzu bo'yicha masala ishlash.
2. Bir necha banklarning Hisob siyosatini o'rganish, solishtirish va tahlil qilish

3- Topshiriq. Quyidagi savollar bo'yicha referat va taqdimot tayyorlang va ximoya qiling:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy standartlarining mazmunini va undagi qaysi standartlar bank tizimiga taa'luqli ekanligini tushuntirib bering.
2. Hisob siyosatining mazmuni va uning konseptual asoslarida nimalar ko'rsatiladi.

3. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobot taqdim etishning o'tgan davriga jiddiy ta'sir qilgan xollarda banklar tushuntirishlarida axborotni yoritib berish.
4. Fundamental xatolarning mohiyati.
5. Bank balansida yil boshiga taqsimlanmagan foydaning qoldig'idagi fundamental xatolari aks ettirilganda axborotlar ochib berilish.
6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi avvalgi davrlar hisobotlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishda aniqlangan summa moliyaviy natijalarning qaysi moddasiga kiritiladi?
7. **Quyida keltirilgan bank hisob siyosatining alohida bo'limlarini o'rganib chiqing:**
 - I bob. Umumiy qoidalar
 - II bob. Buxgalteriya hisobini tashkil etish
 - III bob. Bank operatsiyalarining hujjatlashtirilishi
 - IV bob. Operatsiyalar hisobini yuritish
 - VI bob. Kredit va depozitlar bo'yicha foizlarni hisoblash tartibi
 - VII bob. Bankning debitor va kreditor qarzlari hisobini yuritish tartibi
 - VIII. Bank kapitali hisobini yuritish
 - IX bob. Soliqqa tortish
 - X bob. Bank operatsiyalarini nazoratdan o'tkazish
 - XI bob. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni tashkil etish
 - XII bob. Buxgalteriya hisobida to'g'rilovchi o'tkazmalarni amalga oshirish tartibi
 - XIII bob. Buxgalteriya hisobida to'g'rilovchi o'tkazmalarni amalga oshirish tartibi

4- Topshiriq. Testlarni ishleng

1. Moliyaviy hisobotlarning elementlari qaysi qatorda to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar;
- B) Aktiv, majburiyat, kapital, xarajat, daromad;

- V) Aktiv, majburiyat, kapital;
- G) Foyda va zararlar.

2. “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi moliyaviy hisobotning elementlari

qaysi qatorda to‘liq va to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar;
- B) Aktiv, majburiyat, kapital, xarajat, daromad;
- V) Aktiv, majburiyat, kapital;
- G) Foyda, daromad va xarajatlar.

3. “Balans hisoboti” ining elementlari qaysi qatorda to‘liq va to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Daromadlar, xarajatlar, foyda;
- B) Aktiv, majburiyat, kapital, xarajat, daromad;
- V) Aktiv, majburiyat, kapital;
- G) Foyda va zararlar.

4. 7-MXXS standartiga muvofiq hisobot davri davomida pul mablag‘larining harakati qanday ko‘rinishda tavsiflanishi lozim bo‘ladi:

- A) Operatsion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati;
- V) Investitsion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati;
- S) Moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati.
- D) A, V va S javoblarini umumlashtirish to‘g‘ri

5. Moliyaviy hisobotlarning elementlari qaysi qatorda to‘liq va to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar;
- B) Aktiv, majburiyat, kapital, xarajat, daromad;
- V) Aktiv, majburiyat, kapital;
- G) Foyda va zararlar.

**5- MAVZU: BANKLARDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI
MHXSLARI ASOSIDA HISOBGA OLISH**

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 min.)	1.1. E'lon qiladi: mavzuni, maqsadini, o'quv mashg'ulotini o'tkazish rejasi va uning rejadagi natijalarini. 1.2. Eslatib o'tadi: Insert usulini qo'llagan holda mavzuni mustaqil ma'ruzalar matnidan o'qish. Talabalarga tayanch iboralarini aytib, ularga tushuncha berishni so'raydi. Blits-so'rov o'tkazadi. 1.3. Ma'ruzalar matnini mustaqil o'qish natijasida, Insert metodini qo'llagan xolda talabalarda qanday savollar hosil bo'lganligini aniqlab A32 varag'ini qo'llagan holda doskada ularni yozib boradi. Talabalarni hech qanday mezonisiz 4-guruhga bo'ladi.	Eshitadi, yozil oladi va mavzi bo'yicha tayanch iboralarini aytishadi. Hosil bo'lgar savollarni so'rashadi.
2-bosqich. Asosiy qism (55 min.)	2.1. O'tiladigan mavzudagi savollarni guruhlariga bo'lib berilishi va guruhlar o'zlari «ekspert» vazifasini bajarishlarini e'lon qiladi. Ekspert qog'ozlarini tarqatib (1-ilova) - bir vaqtni o'zida proektor yordamida ulardagi yozuvni ekranga chiqazadi, tushuntiradi va xuddi shunday yo'l bilan talabalarni bajarilgan ishning natijasini	Topshiriq b-n tanishishadi, natijalarni aniqlashtirishadi, savollar berishadi. Guruhlarda (2-

	baholash ko'rsatkichlari va kriteriyasi bilan tanishtirib o'tadi. (2-ilova). Guruhlarda ishlash boshlanganligi haqida e'lon qiladi. 2.2. Presentatsiyani tashkil qiladi: 1) maslahatchi/arbitr sifatida ishtirok etadi; 2) gapirayotgan liderlarga va guruh a'zolariga Insert jadvali natijalari bo'yicha yozilgan savollardan foydalangan holda savollar bilan murojat qiladi; 3) har bir guruhning chiqishidan keyin xulosa qiladi va talabalarni e'tiborini mavzudagi asosiy masalaga qaratadi. 2.3. Talabalarni o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini tekshirish maqsadida ularga savollar bilan murojat qiladi. (3-ilova).	min) ishlashadi jamoa bo'lib yoki aloxida mini guruhlar bo'lib savollarga javoblar tayyorlashadi (bunda albatta savollar jamoa bo'lib hal qilishadi). Ko'rsatish mater ialini tayyorla shadi. Presentatsi bilan chiqishadi (8min). Savollarga javob berishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Olingan natijalarni umumlashtirib, faol qatnashgan talabalarni maqtab o'quv faoliyatiga yakun yasaydi. Talabalarni o'quv faoliyatida olgan bilimlarini kelgusi kasbiy-xunarlarida kerakliyligini belgilaydi. 3.2. Mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi: 1) jo'zlarini tekshirish uchun og'zaki savollarga javob berish (4-ilova); 2) ushbu mavzudan amaliy-diskussiya mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish. Maruza uchun mavzular tarqatib, taqrizchilarni,	Mustaqil tayyorlash uchun topshiriqni Eshitadi, yozib oladi. Maruza uchun mavzu tanlashadi va diskussiyani o'tkazish tartibini xal qilishadi.

opponentlarni tayinlab, diskussiyani o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

1-ilova

Ko'rsatkichlar va baholash mezonlari.

Guruh	Savolni ma'nosi (to'liqligi, aniq ochib berilganligi)	Natija (o'mi ochib berilgan, kategoriyasi aniqlangan)	Guruhning faolligi (qo'shimcha qilish, savollar berish, javoblar)	Ballar	Baho 2-3-«a'lo» 1-2-«yaxshi» 0,5-1-«q-li»
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1					
2					
3					
4					

1- Topshiriq. Banklarda moliyaviy aktivlarni MHXSlari asosida hisobga

olish AMALIY MASHG'ULOTDA KO'RILADIGAN SAVOLLAR:

1. Moliyaviy vosita (instrument)lar va ularning banklarda shakllanishi.
2. Moliyaviy aktivlarning birlamchi tan olinishi va baholanishi.
3. Moliyaviy aktivlarni sotib olishdagi diskont, mukofot va xarajatlar amortizatsiyasi.
4. Moliyaviy aktivlarni keyingi baholash va uning hisobi.
5. Moliyaviy aktivlarni tan olishni to'xtatish va uni hisobdan chiqarish.

6. Banklarda moliyaviy aktivlarni qayta tasniflash va uni hisobga olish.
7. Banklarda moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishi, uning hisobi.

Quyidagi savollarni guruhlarga bo'linib o'rganish:

1. Kreditlarni hisobga olish
2. Qimmatli qog'oz larni hisobga olish

2- TOPSHIRIQ. Testlarga tog'ri javobni belgilang.

1. MHXSlariga asosan aktivlar - ?

